

**YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O'RGANISH MOTIVATSIYASINI
OSHIRISH YO'LLARI**

Z.D.Abralova - TDPU, o'qituvchi

N.O.Ismailova - TDPU, talaba

A.Ikromiddinova - TDPU, talaba

Annotatsiya. Hozirgi rivojlangan, zamonaviy davrda yoshlarga bo'lgan e'tibor va talab o'sib bormoqda. Ularning muvaffaqiyatga erishishlari uchun shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Ularning aqliy salohiyati rivojlanib, turli olimpiada ko'rik-tanlovlari faol ishtirok etib, faxrli o'rnlarni egallab kelishmoqda. Maqolada yuqori sinf oquvchilarida ingliz tilini o'rganishda motivatsiyaning o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, xalqaro imkoniyatlar, interfaol darslar, muloqot qilish amaliyoti, audio, video va audiovizual materiallar, grammatika, kompyuter interfeysi, subtitr, onlayn resurslar

**СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ СТАРШЕКЛАСНИКОВ К
ИЗУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

З.Д. Абралова – ТГПУ, преподаватель

Н.Т. Исмаилова – ТДПУ, студентка

А.Икромидинова – ТДПУ, студентка

Аннотация: В сегодняшнюю развитую, современную эпоху внимание и востребованность молодёжи растут. Создаются условия для их успеха. Их умственный потенциал развивается, они активно участвуют в различных олимпиадных конкурсах, занимают почётные места, и это очень много значит для нас. В статье освещена роль мотивации в изучении английского для старшеклассников

Ключевые слова: мотивация, международные возможности, интерактивные уроки, коммуникативные практики, аудио, видео и аудиовизуальные материалы, грамматика, компьютерный интерфейс, субтитры, онлайн -ресурсы

**WAYS TO INCREASE HIGH SCHOOL STUDENTS' MOTIVATION TO LEARN
ENGLISH**

Z.D.Abralova – TSPU, teacher

N.O.Ismailova - TSPU, student

A.Ikromiddinova-TSPU, student

Annotation: As everyone knows, in the current developed, modern era, attention and demand for young people is growing. Conditions are being created for them to achieve success. Their mental potential is developing, they actively participate in various Olympic competitions, occupy proud positions, and this is of great importance to us. Through their achievements, other young people are also gaining motivation. The article highlights the role of motivation in learning English for high school students.

Key words: motivation, international opportunities, interactive lessons, communication practice, audio, video and audiovisual materials, grammar, computer interface, subtitle, online resources

Bugungi kunda global til hisoblanmish ingliz tilining o'rni beqiyos. Hozirda bu tilni kichik yoshdagi bolalardan tortib, katta yoshdagi insonlargacha o'rganib kelayotganini bilamiz. Ayniqsa, hozirgi o'spirin yoshlardan bu til ko'p talab qilinadi. Shuningdek, maktab o'quvchilari bu tilni o'z vaqtida o'zlashtirib, bilimlarini yanada orttirishi lozim bo'ladi. Ammo yana bir muhim narsa borki,

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**VOLUME-5, ISSUE-5**

ularga to'g'ri motivatsiya berib, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish kerak bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchilarida ingliz tilining o'rganish motivatsiyasini oshirish yo'llari va usullari ko'p. Hozir ularni birin-ketin ko'rib chiqamiz. Birinchidan, o'quvchilarga ingliz tilini amaliy ahamiyatini tushuntirish lozim bo'ladi. Ya'ni, ingliz tili kelajakdagi ta'lim va ish imkoniyatlari uchun muhim ekanligini real misollar orqali tushuntirish kerak. Misol uchun, IELTS, TOEFL kabi sertifikatlarning ahamiyatini ko'rsatishimiz lozim. Bundan tashqari, dunyo universitetlariga kirish va xalqaro stipendiyalar haqida ma'lumot berish ham muhim. Keyingi usulga keladigan bo'lsak, o'qituvchilar dars davomida qiziqarli dars metodlarini qo'llashi lozim. Masalan, o'yinlar, viktorinalar va interfaol mashg'ulotlar o'tkazishi mumkin. Bundan tashqari, video, podkast, musiqa va filmlar orqali ularni darsga jalb qila olish mumkin. Yoki, real hayotiy muloqotga asoslangan topshiriqlar berish ham foydali bo'ladi. Uchinchi usulga to'xtaladigan bo'lsak, ingliz tilini o'rganish jarayonini shaxsiy manfaatlarga bog'lash mumkin. Masalan, har bir o'quvchining qiziqishlarini aniqlash va shu mavzularga oid matnlar, videolar bilan ishlash muhim. Bundan tashqari, ingliz tilida yozilgan kitob va maqolalarni o'qishga undash kerak. Hozirgi zamonaviy, rivojlangan, texnologik asrda ingliz tilini o'rganishda turli xil texnologiyalardan foydalanilmoqda. Ulardan eng mashhur va ko'p qo'llaniladigan Duolingo, BBC learning english va Memrise hisoblanadi. Yana online kurslar va veb-saytlar (Coursera, Udey) ham tavsiya etiladi. Navbatdagi motivatsiyani oshirish usullaridan biri bu, tajriba almashish va rag'batlantirish hisoblanadi. Albatta, bunda o'qituvchilarning o'rni ahamiyatli. Ular ingliz tilini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar bilan uchrashuvlar taklif qilishlari mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilarni xalqaro tanlovlar va konferensiyalarga jalb qilib, ularni yanada ruhlantirish lozim. Yana shuni aytish kerakki, o'quvchilar uchun mukofot va rag'batlantirish tizimini joriy etish orqali ularni qiziqishlarini orttirish mumkin. Masalan, sertifikat yoki kichik sovg'alar bilan ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini yanada orttirish mumkin. Ingliz tilini nafaqat individual tarzda, balki jamoaviy muhitda o'rganish muhim. Buning uchun, o'quvchilarning yoshiga mos ravishda ingliz tili klublarini tashkil qilish, jamoaviy loyihalar va debatlar uyushtirish kerak. Har kuni bitta so'z yoki iborani yodlash va uni kundalik nutqda ishlatish shartini yo'lga qo'ysak, ularda sezilarli tarzda o'zgarish yuz beradi. Bundan tashqari, ingliz tilida blog va kundalik yuritish ham foydadan xoli emas. Ma'lumki, hozirgi kunda xorij davlatlariga sayohat qilish imkoniyatlari ortib bormoqda. Ko'p o'spin yoshdagilar o'qish va ishlash maqsadida chet elga ketishadi, biz yuqori sinf o'quvchilariga chet elga chiqish imkoniyatlari haqida ma'lumot berib, ularni qiziqtirishimiz kerak. Bundan tashqari, butun dunyoda keng qo'llanilayotgan Work & Travel, Erasmus+, Flex kabi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyatini tushuntirib o'tishimiz va ulardan qanday, qay maqsadda foydalanish kerakligini uqtirib o'tishimiz lozim. Maktabda yuqori sinf o'quvchilariga nafaqat nazariy balki, amaliy jihatdan ham yondashish kerak. Masalan, turli xil o'yinlar va musobaqalar tashkil etish mumkin. Albatta, ularning hammasi fanga aloqador bo'ladi. Hozirdagi ko'plab muammolardan biri bu so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olmaslik. Bu muammoga ko'plab o'quvchilar duch kelishadi. Bu qiyinchilikni yengish uchun "Spelling Bee" musobaqasini ya'ni so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish musobaqasini tashkil qilish kerak. Yana shuni aytish kerakki, turli sahna ko'rinishlari, rol o'yinlari tashkil qilish lozim (in restaurant, airport, job interview kabi holatlar). O'quvchilar o'zlari uchun real hayotga yaqin sharoit yaratishlari lozim. Boshqa so'z bilan aytadigan bo'lsak, ular ingliz tilida faqatgina o'quv darslarida emas, balki boshqa fanlar va tadbirlarda ham foydalanishlari, gapirish ko'nikmalarini yanada oshirishga yordam beradi. Alohida ingliz tili kunlarini tashkil qilishlari ham mumkin. Bunda barcha o'quvchilar faqat ingliz tilida gaplashishlari kerak bo'ladi. Yana qo'shimcha qiladigan bo'lsak, ular ingliz tilida teatr sahnalari qo'yish yoki kichik film suratga olishlari ham mumkin. Xulosa qilib shuni aytish kerakki,

yuqoridagi barcha usullar o'quvchilar uchun qiziqarli va muhim bo'lishi mumkin, ularni til o'rganishga rag'batlantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov, N. (2005). Chet tillarini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
2. Yo'ldoshev, U., Jo'rayev, M. (2010). Chet tili o'qitishning innovatsion usullari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
3. O'rinboyev, O. (2018). Ta'lim jarayonida motivatsiya va uning samaradorligi. Toshkent: Fan.

